



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO’NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

## **THE JADID MOVEMENT IN TURKESTAN AND THEIR ACTIVITIES**

**Bo‘ronov Shohzod Allayor o‘g‘li**

1st-year Master’s Student, Pedagogy Program National Pedagogical University  
of Uzbekistan named after Nizami

**Annotation:** This article provides information on the emergence of the Jadid movement in Turkestan and the study of their activities, their actions and activities, their work for the nation and the work they did for freedom and liberty. This article scientifically analyzes the factors of the emergence of the Jadid movement, the main ideas and areas of activity that arose in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries. The role of Jadids in education, the press, literature and political life is highlighted, and the historical significance of this movement is revealed..

**Keywords:** *Jadidism, Turkestan, enlightenment, national revival, new method schools, Turkestan, Jadid movement, Asia, science, technical development,*

## **TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI VA ULARNING FAOLIYATI**

**Bo‘ronov SHohzod Allayor o‘g‘li**

**Nizomiy Nomidagi O‘zbekiston milliy Pedagogika Universiteti**

**Pedagogika Yo‘nalishi Magistratura 1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelish hamda ularning faoliyatini o'rganishga oid Ma'lumotlar ularning harakatlari va faoliyati millat uchun qilgan ishlari va ozodlik erkinlik uchun olib brogan ishlari Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakatining vujudga kelish omillari, asosiy g‘oyalari va faoliyat



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Jadidlarning ta‘lim, matbuot, adabiyot va siyosiy hayotdagi o‘rni yoritilib, ushbu harakatning tarixiy ahamiyati ochib beriladi.

***Kalit so‘zlar:*** *jadidchilik, Turkiston, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, yangi usul maktablari, Turkiston, jadidchilik harakati, Osiyo, ilm-fan, texnika taraqqiyoti,*

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о возникновении джадидского движения в Туркестане, а также изучена его деятельность, действия и деятельность, работа на благо нации и во имя свободы и независимости. В статье проводится научный анализ факторов возникновения джадидского движения, основных идей и направлений деятельности, возникших в Туркестане в конце XIX и начале XX веков. Подчеркивается роль джадидов в образовании, прессе, литературе и политической жизни, а также раскрывается историческое значение этого движения.

**Ключевые слова:** джадидизм, Туркестан, Просвещение, национальное возрождение, школы нового метода, Туркестан, джадидское движение, Азия, наука, техническое развитие.

## **KIRISH**

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi.

«Jadid» so‘zi arabcha yangi usul degan ma‘noni anglatadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asrning oxirida quruq madaniy-ma‘rifiy harakatning, ya‘ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yengil tovuch usuliga asoslangan Yangi uslub (metod) asosida o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi, ayni chog‘da Turk-islom huquqiy munosabatlarning millatga o‘rgatilishi, milliy-ma‘rifiy, Taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu Harakatning vujudga kelishida O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch Yoyib rivojlangan turli oqimlar va



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Turkiyadagi «Ittihodiy va taraqqiy», «Yosh Turklar» harakatining ta’siri katta bo‘ldi. Jadidchilik harakatining shakllanish omillari.

Jadidchilik harakatining eng muhim yo‘nalishi ta’lim islohoti bo‘ldi. Yangi usul maktablarida fonetik usul asosida savod o‘rgatilib, matematika, geografiya, tarix, tabiiyot kabi fanlar joriy etildi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy kabi jadidlar darsliklar yozib, ta’lim tizimini yangilashda muhim rol o‘ynadilar. Bu maktablar qisqa vaqt ichida xalq orasida keng tarqaldi. XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hamda demokratik harakat jarayoni asosan ikki yo‘nalishda rivojlanib borgan.

Birinchi yo‘nalish chor Rossiyasiga qarshi kurashni turlicha g‘oya va yo‘nalishlarda olib borish maqsadida Rossiyaning o‘zida vujudga kelgan sotsial-demokratik kadetlar, eserlar va boshqa Siyosiy partiyalarning vakillari edilar. Hali bu guruhlar vakillari hatto oktabr To‘ntarilishiga qadar ham o‘lkada siyosiy partiya o‘laroq uyushib shakllanmagan edilar. Chunki ular oz sonli va asosan kelgindi rusiy zamon millatlarning vakillaridan iborat bo‘lganlar.

Mahalliy xalq bu siyosiy guruhlarining birortasiga ham ommaviy sur’atda ergashmagan, ularni qo‘llab-quvvatlamagan, bu guruhlariga a’zo bo‘lib kirmaganlar. Chunki, mahalliy xalq tili boshqa, dini, urf-odati boshqa. Bo‘lgan rusiyzamon millatlarga yotsirab, begonasirab, ularni g‘ayridin-kofirlar deb, Bosqinchi-mustamlakachilar deb qaraganlar. Bu siyosiy guruhlarining dastur Maqsadlari, taktik kurash usullari mahalliy xalq g‘oyasi va saviyasidan yiroq bo‘lgan, ular bu dastur maqsadlar mohiyatini chuqur tushunib yetmaganlar va ularni qabul qilmaganlar.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bilimli va ma’rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surgan.

XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o‘lka ma’naviy-ma’rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan namoyandalari vujudga keldi.

Bular Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Said ahmad Siddiqiy Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Farg‘ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho‘lpon, Is‘hoqxon Ibrat, Xivada Boboovun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma’rifatparvar, Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi.

Turkiston jadidchilik harakatining namoyandalari ma’rifatparvar kishilar edi. Ma’rifatparvarlar keng ma’noda bilim tarqatuvchi kishilar hisoblanadi. Siyosiy ma’noda ma’rifatparvarlik xalqni ozodlikka olib chiqish va milliy davlatchilik g‘oyalarini ilgari surish bilan ifodalanadi. Turkiston ma’rifatparvarlari jaholat bilimsizlik, madaniyatsizlik, mutaassiblik, diniy aqidaparastlikni inson azob-uqubatlarning asl sabablari deya talqin etdil

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam Turkistonda jadidchilik harakati millatni uyg‘otish va taraqqiyot sari yo‘naltirishda muhim o‘rin tutdi. Cho‘kib borayotgan millatni ozodlik va erkin hayotga olib chiqish bo‘ldi va bu borada qanchadan qancha jadidchilarimiz harakat qildi hatto butun hayotidan kechib vatan millat uchun tinmay harakat qildi va kelajak avlod uchun bitmas tugamas boylik yaratib, milatimiz qudratini namoyondasi bo‘lib qoldi va abadiy millat qalbida qoldi. Jadidlarning islohotlari nafaqat



**“ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK  
TARAQQIYOTNING USTUVOR YO‘NALISHLARI” nomli Respublika  
ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi  
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ta’lim va madaniyat sohalarini, balki xalqning ijtimoiy hayotini ham tubdan o‘zgartirdi. Ularning faoliyati natijasida Turkiston jamiyati zamonaviy taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ydi. Jadidchilik harakatining tarixiy merosi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, uning g‘oyalari mustaqil O‘zbekistonning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O‘zbekiston, 1997.
2. Abdurahmonov H. Jadidlar harakati: Milliy uyg‘onishning yangi bosqichi. Toshkent:
3. Salohiddinov A. O‘zbekistonning yangi tarixi. Toshkent: Universitet, 2005.
4. Fitrat. Millat va maorif masalalari. Toshkent: Fan, 1991
5. Avloniy A. Turkiston tarixi va jadidchilik islohotlari. Toshkent: Adabiyot, 1976.
6. G‘ulomov M. O‘zbek jadidchiligining o‘rni va roli. Toshkent: Sharq, 2010.